

**AMIR TEMURNING JISMONIY VA HARBIY TAYYORGARLIKDAGI YENGILMAS  
TAJRIBASI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10064170>

**Tishabayev Alisher Maxamatdjonovich**

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Farg'ona filiali,*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada muallif tomonidan Amir Temurning jismoniy tarbiya va harbiy sohadagi qarashlari, uning nayzabozlik, chavandozlik, kurash, suzish kabi mashqlar bilan muntazam shug'ullanganligi, "Temur tuzuklari" kabi bir qator tarixiy asarlarda Amir Temur va uning avlodlari jismoniy tarbiyaga alohida ahamiyat qaratganliklari, harbiy jang san'ati ilmini puxta egallaganligi haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so'z va iboralar:** *jismoniy tarbiya, harbiy, nayzabozlik, chavandozlik, kurash, suzish, harbiy jang san'ati, askar, chiniqtirish, tana muvozanati mashqlari, shiddat-tezkorlik, epchillik, chidamlilik, chaqqonlik.*

**Аннотация.** *В данной статье автор описывает взгляды Амира Темура на физическое воспитание и военное дело, его регулярные занятия метанием копья, верховой ездой, борьбой и плаванием, а также тот факт, что Амир Темур и его потомки уделяли физическому воспитанию особое внимание в ряде исторических сочинений, таких как «Уложения Темура», военным считается, что он основательно освоил науку боевых искусств.*

**Ключевые слова и фразы:** *физическая культура, военнослужащие, метание копья, конный спорт, борьба, плавание, воинские единоборства, военнослужащий, фитнес, упражнения на равновесие тела, скорость, ловкость, выносливость, ловкость.*

**Abstract.** *In this article, the author describes Amir Temur's views on physical education and the military field, his regular practice of javelin, horse riding, wrestling, and swimming, as well as the fact that Amir Temur and his descendants paid special attention to physical education in a number of historical works such as "Temur's Tuzuklari", military it is thought that he has thoroughly mastered the science of martial arts.*

**Key words and phrases:** *physical education, military, javelin, equestrian, wrestling, swimming, military martial arts, soldier, fitness, body balance exercises, speed, dexterity, endurance, agility.*

Temuriylar davrini aks ettiruvchi SHarofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Fosih Havofiyning "Mujmal-i Fosihiy", Mullo Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma", ayniqsa, "Temur tuzuklari" kabi bir qator tarixiy asarlarda Amir Temur va uning avlodlari jismoniy tarbiyaga alohida ahamiyat qaratganliklari qayd etilgan. Sohibqironning o'zi bolaligidan

boshlab jismoniy tarbiya va jangovar san'atlarga alohida e'tibor qaratgan. U nayzabozlik, chavandozlik, kurash, suzish kabi mashqlar bilan shug'ullangan. Askarlarini har tomonlama chiniqtirishda qo'llagan daryoni kechib o'tish, suzish, daradagi tog'larning biri ustidan ingichka arqon tortib ikkinchisiga o'tish, tana muvozanati mashqlari, shiddat-tezkorlik, epchillik, chidamlilik, chaqqonlik kabi mashq uslublari ularni jangga tayyorgarliklarini mustahkamlash bilan birgalikda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini oshirgan [6].

Amir Temur jismoniy tarbiyaga ham katta e'tibor bergan. SHarqda dilovarlik tarbiyasi, ya'ni yoshlarda mardlik, jasurlikni tarbiyalash asosiy masalalardan sanalgan. Yigitlar bolalikdan merganlik, chavandozlik, suvda suzish, ovchilik, qilichbozlik, shaxmat o'yini kabilarni mohir murabbiylardan o'rganib, bu borada mashq qilar edilar.

Buyuk Temur "Saltanat to'nini kiygach, o'z to'shagimda rohatda uxlash huzur-halovotidan voz kechdim. O'n ikki yoshimdan turli diyorlarni kezdim, ranju mehnat tortdim. Har xil tadbirlar qo'lladim, (g'anim) qismlarini sindirdim. Amirlar va sipohiylarning isyonlarini ko'rdim, ulardan achchiq so'zlar eshittim. Lekin sabru bardosh bilan o'zimni eshitmaganko'rmaganga solib, ularni tinchitdim. Qilich ko'tarib jang maydoniga otildim va shu tariqa dunyoda nom chiqardim" yoshlarni mard va jasur, vatanparvar, qurol va qurolsiz jang qila oladigan, epchil, chaqqon, qo'l, oyoq kuchi bilan yiqitish mahoratini egallagan Vatan himoyachilarini ma'naviy kamolotga yetkazishga muhim ahamiyat kasb etadi. Amir Temur davrida kurash, otda yurish san'ati, ko'pkari, ot poygasi, yoy va kamondan otish, ov, chavgon o'yini singari ommaviy mashg'ulotlar va o'yinlar qo'shinlar va xalq orasida keng tarqalgan U o'g'il bolalarni harbiy san'at sirlarini o'rgatish uchun maxsus ustozlar tayinlagan. Bunda faqat qo'shindagilarni emas, balki umumxalqni ham harbiy va jismoniy tarbiyalash jarayoniga e'tibor qaratgan. Bundan tashqari, farzandlari va nabiralariga qoldirgan yo'l-yo'rig'ida o'n ikki narsani shior qilib, shunday deydi: "Sayiydlar, ulamo, mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e'tiborli odamlar hisoblab, izzatu-hurmatlarini o'rniga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Ulamo bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim, ularning himmatlaridan ulush tilab, muborak nafaslarini bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qildim". Amir Temurning tajribasi nafaqat zamonaviy askarlar tayyorlashda, balki yoshlarni mard, jasur, kuchli, chaqqon, epchil qilib tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi [2, 5, 11].

Mohir sarkarda va davlat arbobi Amir Temurning tarixiy xizmatlari hamon mutaxassislar tomonidan katta qiziqish va qoniqish bilan o'rganilmoqda. Uning jahon tarixiy taraqqiyotiga qo'shgan hissasini sira inkor qilib bo'lmaydigan jihati, eng avvalo, shundaki, birinchidan, u ulkada uzoq davom etgan ayanchli mug'ul istibdodiga barham berdi; ikkinchidan, parokandalikka yuz tutgan Markaziy Osiyonda yagona markazlashgan davlat barpo etishga erishdi; uchinchidan, O'rta Sharq, Yaqin Sharq va Kichik Osiyo mintaqalaridagi siyosiy beqarorlikka barham berib, ularning xavfsizligini ta'minladi; to'rtinchidan, Mug'uliston ustiga qilgan yurishlari bilan Xitoyning Minь sulolasini

mug'ullar solayotgan xavfdan xalos etdi; beshinchidan, Oltin O'rda hoqoni To'xtamish bilan 1391, 1395 yillarda olib borgan ulkan janglari tufayli Rossiyaning mug'ullar zulmidan ozod bo'lishini bir necha o'n yillarga tezlashtirdi; oltinchidan, 1402 yilda Usmoniylar imperiyasi ustidan qozongan g'alabasi Yevropani xalokatdan qutqarib qoldi va uni Yevropa xaloskoriga aylantirdi. Amir Temur jahonning to'rtta mashhur sarkardalaridan biri, kuragi yerga tegmagan buyuk sarkarda, xudo bergan salohiyatini to'la-to'kis namoyon eta olgan, monandi yo'q buyuk armiya qumondoni edi. Jang san'ati, askar tutish qoidalari, jangovar saf tortish kabilar uning "Tuzuklari"da batafsil yoritilgan. Binobarin, harbiy san'at tarixi Temurni jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida tan oladi. Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda, Temurning armiyasining quyidagi xususiyatlarini qayd etish mumkin. Birinchidan, Temur armiyasi umumxalq xarakteridagi lashkarlardan iborat emas edi; ikkinchidan, Temur qo'shiniga chorvadorlar qatoridan, kosiblardan, hunarmandlardan va o'troq aholidan askar olingan; uchinchidan, Temur qo'shinida harbiy kuchlarning asosini tashkil qiluvchi otliq asaklar bilan bir qatorda, piyodalardan tuzilgan qismlar ham bo'lgan; to'rtinchidan, Temur SHarqda birichilardan bo'lib, o'z armiyasiga o'tirg'ituvchi qurol – ra'd andoz olib kirgan; beshinchidan, sohibqiron tog'li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus qismlarni tashkil etgan; oltinchidan, Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib, qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy qilgan; yettinchidan, qo'shin qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha, g'anim kuchlarini yon tomonidan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – kanbulni joriy etgan. Sohibqiron tashkil etgan qudratli va intizomli armiya jahonning o'sha vaqtdagi eng ilg'or armiyasi sifatida keyinchalik buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar, tarixchi olimlar tomonidan e'tirof etilgan va ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, hozirda ham bu meros ko'plab qo'shinlar uchun andoza vazifasini o'tab kelmoqda. Venger tarixchisi Herman Vamberi, Amir Temurning harbiy salohiyati haqida gapirar ekan, haqli ravishda shunday degan edi: "Binobarin, Temurni CHingiz ila bir safga qo'yib, uni vahshiy, zolim, qaroqchi deb atagan kishilarning fikrlari ikki marotaba xatodir. U, avvalo, Osiyo sarkardasi edi. O'zining g'olib asakarlari va qurollaridan o'z zamonasining taomilicha foydalangan. Uning faoliyati, xususan, dushmanlari tarafidan gunoh hisoblangan ishlari va urushlari, teranroq qaralsa, biror jinoyatga jazo tarzida ro'y bergan" [1, 2, 5, 10].

Tarixdan yaxshi ma'lumki, harbiy jang san'ati ilmini puxta egallagan qadim ajdodlarimiz dushmanni mahv etishda nafaqat kuchli askar va qurollar yordamiga tayanishgan, balki harbiy hiylalardan ham unumli foydalanishgan. Bu usul ayniqsa, oz sonli qo'shin bilan dushmanning ko'p sonli qo'shinini mag'lub etishda juda qo'l kelgan. Buyuk ajdodlarimiz harbiy san'ati, bu san'atdagi harbiy hiylalardan foydalanish haqida so'z borganda birinchi galda betimsol davlat arbobi va sarkarda, Sohibqiron Amir Temur nomi tilga olinadi.

Sohibqiron Amir Temur janglarda turli harbiy hiylalardan foydalangan. “U (odamlarni) chalg’itish qobiliyatiga ega bo’lib, harakatlarida shiddatlik (asari) bor edi. Agar uning boshiga bexosdan bir (mushkul) ish tushsa, u o’zini go’yo ushbu ishkalgga marg’ub ko’rsatib, (aslida) uni daf qilishga kirishardi. Uning (odamlarni) chalkashtirishidan (bir misol) shuki, agar unda biror makonga nisbatan xohish tug’ilsa yoki biror qavm maydonga tushishgni istab qolsa, xufyalik va bekinishga yuz qo’yib, qalbaki harakat va o’zini go’llikka solishni talab etardi”. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Amir Temur hali davlat tepasiga kelmasdan turib o’zining kam sonli qo’shini bilan tajribali mo’g’ul hukmdori Ilyosxo’janing ko’p sonli lashkariga qarshi kurashayotgan chog’da aynan bir tadbirga tayanib, dushman hujumi xavfini bartaraf etaolgan ekan. Tabiiyki, Ilyosxo’ja va Amir Temur bir-birining ustun va zaif tomonlarini o’rganishga intilgan. Ahvolni bilish uchun Ilyosxo’ja tarafdin Amir Temur huzuriga elchi keladi. Sohibqiron vaziyatdan foydalanib, elchini chalg’itish maqsadida askari saflarini qayta-qayta uning oldidan o’tkazadi. Natijada elchida Amir Temurning qo’shini ko’p ekan degan fikr tug’iladi [3, 4, 7].

Amir Temurning yana bir harbiy hiylasi - u dushman ko’ngliga vahima solish maqsadida otlarga shox - shabba bog’lab, kam sonli qo’shinini jang maydonidan chetroqdaqayta -qayta yugurtiradi. U yerda ko’tarilgan vahimali shovqin -suron, quyuq chang -to’zondan esa dushman askarlarining aqli shoshgan.Tunda esa har-har yerga katta gulxanlar yoqtiradi. Sohibqiron janglarda qo’llagan harbiy hiylalari haqida o’z “Tuzuklar”ida shunday deb yozadi: “Men yana tajribamdan ko’rdimki, g’anim lashkarini yengish qo’shinining ko’pligi bilan emas, mag’lub bo’lish esa sipohning kamligidan bo’lmaydi. Balki /Tangrining/ madadi va bandasining tadbiri bilandir. Chunonchi, men kengashgan va tadbir yuritgan holda ikki yuz qirq uch kishi bilan Qarshi qal’asi ustiga yurdim. Amir Muso va Malik bahodir o’n ikki ming otliq askar bilan qal’a va uning atrofini qo’riqlamoqda edi. Lekin Tangri taoloning yordami yetib, o’zim qo’llagan to’g’ri tadbirlar orqali Qarshi qal’asini egalladim”. Bunda Amir Temur o’zini qo’shini bilan boshqa tomonga ketayotgandek ko’rsatib, Amudaryodan o’tadi va u yerda uchragan karvon egalariiga sovg’a-salom berib, Xuroson viloyatiga ketayotganini aytadi. Buni eshitgan amir Muso va Amir Husayn qo’shinlari xursand bo’lib, o’yin-kulgu va aysh-ishratga beriladilar va Sohibqiron bu qulay paytdan unumli foydalanib, hiyla bilan qal’ani qo’lga kiritadi. Va yana shunday harbiy hiylalardan biri haqida “Tuzuklar”da shunday deyiladi: “Dashti Qipchoq xoni To’xtamish xonlik talashib, O’rusxondan yengilib, mening panohimga qochib kelgan edi. Uning bilan qo’shin yuborsammikan, yo o’zim borsammikan deb turganimda O’rusxonning elchisi kelib qoldi. Kengashib, elchining ko’nglini ovlab, so’ng ketishga ijozat berishni, o’zi esa Dashti Qipchoq tomon yuzlanib, elchining ketidan lashkar jo’natishni mo’ljalladim, toki elchi xotirjamlik bilan bo’lgan voqealarni O’rusxonning majlisida bayon qilsin, ertasi kuni mening qo’shinim ularning ustiga bostirib borsin.O’ylaganimdek ish tutgandim, tadbirim taqdirga to’g’ri keldi, O’rusxon elchisi bo’lgan voqealarni so’zlab berayotgan paytda, mening qo’rqmas lashkarim nogahon kelgan balodek O’rusxon ustiga yopirildilar. O’rusxon qarshilik

ko'rsata olmay, qochishni ixtiyor qildi. Dashti Qipchoq mamlakati menga bo'ysundi" [8, 9, 10].

Amir Temur 1399 yilda Hindistonga qilgan yurishda, Dehli shahrini egallashda ham yana bir harbiy hiylani muvafaqiyatli ishlatadi va g'alaba qozonadi. "Temur ilgari dushmani urushga solish uchun o'zini zaif ko'rsatar edi. Bu savquljeysh (strategiya) hiylasiga bu yerda ham erishdi. Hindistonliklar unga tez hujum qildilar hamda butunlay mag'lubiyatga uchradilar".

Bu haqda Amir Temur "Tuzuklar"da shunday deb yozadi: "Kengashni shundan topdimki, g'anim lashkari dadillanib, (qal'adan) chiqib, saf tortib jang maydoniga kirishi uchun, o'zimni kuchsiz (qo'rqqandek) qilib ko'rsatmoqchi bo'ldim. SHu sababdan lashkardan uzoqroqda xandaq qazdirdim. Lashkarim bilan xandaq ichiga yaxshilab joylashganimdan keyin, lashkarimning bir qismini dushmanga qarshi jangga tashladim. Dushman qarshisiga borgach, o'zlarini kuchsiz ko'rsatib, qo'rqqanday bo'lib chekinishlarini va g'animlarni dadillantirib kelishni buyurdim. Dushman lashkari bu holni ko'rib o'zlarini g'olib hisoblab, gerdayib jang maydoniga chiqqan edilarki, (mening) qahrli lashkarim bilan yuzma-yuz keldilar. Dehli hokimi Sulton Mahmud jangga kirishdi va yengilib tog' tarafga qochdi. Beqiyos xazina va mol-mulki sipohilarimga nasib bo'ldi".

Amir Temur foydalangan harbiy hiylalardan biri haqida Ibn Arabshoh shunday deb yozadi: Mo'g'ullarga qarshi qilingan safarlarning birida Temurbek qismlari g'anim lashkari bilan kutilmaganda yuzma-yuz kelib qoldi. Askarlarda dovdirash va ikkilanish kayfiyati paydo bo'layotganligini payqagan Sohibqiron ularga dushman lashkargohiga qarab yurishni davom ettirishni va yovga ko'rinarli joyda otlardan tushib, ularni o'tloqqa qo'yib yuborishni hamda o'zlariga dam olib, hordiq chiqarishni amr etadi. Muxolif tomon bularni o'z askarlari deb xayol qilib, beparvolik bilan Temurbek yonidan o'ta boshlaydi. Hordiq chiqarib olgan Sohibqiron askarlari otlariga minadi va suron solgan holda g'animning orqasidan zarba beradi.

Muzaffar sarkarda Amir Temur harb san'atining dahosi bo'lgan. Ma'lumki, u shaharlarni vayron qilmasdan, iloji boricha kam talafot berib olishni afzal ko'rgan. Amir Temur harbiy hiyla turlaridan - buyuk va'dadan tortib samimiy nasihatgacha bo'lgan shakllardan mohirona foydalangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hasanboyevich M. A., Halilovich M. S., Ortikovich U. A. AMIR TEMUR ARMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA TUZILISHI //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 1037-1040.

2. Казаков Н. Н., Уралов Х. Б. МУДОФААГА ТАЙЁРГАРЛИК КЎРИШ ВА БОШҚАРИШДА ҲАРБИЙ ҲИЙЛАНИ ҚЎЛЛАШ //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 33. – С. 1-8.

3. Кенжаев С. Амир Темур ва Хитой дипломатик муносабатларининг объектив ва субъектив омиллари //Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. – 2022. – Т. 1. – №. 26. – С. 130-135.
4. Мустаев Р. Д., Абдуллаев С. А. АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИИЛАР ДАВРИДА АХЛОКИЙ-ЭСТЕТИК ГОЯЛАРНИНГ РИВОЖЛАИШИ //Интернаука. – 2020. – №. 24-3. – С. 23-24.
5. Сориев Х. Я. АМИР ТЕМУР ЖАНГ САНЪАТИДА ҲАРБИЙ ҲИЙЛАЛАР ТАРИХИГА ОИД БАЪЗИ МАЪЛУМОТЛАР //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 9.
6. Суюнова К. Б. и др. Амир Темур маънавиятининг соғлом авлодни шакллантиришдаги ўрни //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 677-684.
7. Умриллов Л. Ф. Ў., Махмудова А. Н. Амир Темур даври давлат бошқарувига оид баъзи бир мулоҳазалар //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 425-432.
8. Хасанов Х. Р. Культура и искусство в эпоху Амира Темура и темуридов //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 119-122.
9. Холиқулова П. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ФАОЛИЯТИДА ТЕМУР ТУЗУКЛАРИНИНГ ЎРНИ //Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 306-308.
10. Холмўминов Ж. СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ФАТҲЛАРИДА ҲАРБИЙ ТАКТИКА ВА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУТАНОСИБЛИГИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 538-553.
11. Темур А. Темур тузуклари. – Қутлуғхон Шокиров, 2021.
12. Tishabayeva, I. R. (2023). 1945-1970 YILLARDA SHAHAR VA QISHLOQ MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING MUTAXASSIS KADRLAR BILAN TA'MINLANISHI: YUTUQ VA MUAMMOLAR. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 866–869. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2790>
13. Tishabayeva, I. R. (2023). O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING MODDIY TEXNIK AHVOLI (1946-1990 YILLAR). RESEARCH AND EDUCATION, 2(9), 261–268. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/4902>
14. Tishabayeva, I. R. (2020). Formation, activities and problems of preschool education institution in Uzbekistan (1945-1980 years). *Academica An International Multidisciplinary Research*, 10(5), 342-347.
15. Tishabayeva, I. R. (2021). Institutions of Preschool Education in Uzbekistan (1945-1960). *International journal of multicultural and multireligious understanding*, 8(11), 227-231.
16. Rasulova S. A., Azimov U. A. FORMATION OF AXIOLOGICAL CONSCIOUSNESS IN THE ERA OF GLOBALIZATION //Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology. – 2020. – Т. 2. – №. 4. – С. 228-231.

17. Азимов У. А. ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА ЁШЛАРНИНГ ДЕМОКРАТИК ҚАДРИЯТЛАР ТИЗИМИГА АКЦИОЛОГИК МУНОСАБАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАХЛИЛИ //ТОШКЕНТ-2021. – С. 102.

18. Азимов У. А., Умурзаков А. М., Абдурахмонов Г. З. Духовное мировоззрение и его влияние на национальные ценности //Вестник науки и образования. – 2019. – №. 19-3 (73). – С. 62-64.

19. Рафиқова Д., Азимов У. ТАЪЛИМНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ВА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2 (81). – С. 167-169.

20. 11.Рафиқова Д., Азимов У. MODERNIZATION OF EDUCATION AND INCREASING THE QUALITY OF EDUCATION //Экономика и социум. – 2021. – №. 2-2. – С. 167-169.